

## **EMOTIV-EKSPRESSIVLIKNING LINGVISTIK ASOSLARI**

*Abdusattarova Shaxlo Toshtemirovna*

*Nukus Innovatsion Instituti*

*“Filologiya va tillarni o‘qitish”*

*kafedrasi assistent o‘qituvchisi*

**Annotatsiya.** Ushbu tezisdagi emotsional ekspressivlik xususiyatlari to‘g‘risida olimlarning qarashlari, emotsional-ekspressivlik lingvopoetik vositalari, emotsional hissiylik, ekspressivlik, uslubiylilik, baho munosabat xususiyatlari, his tuyg‘ularini o‘rganish obekti hamda emotsional ekspressivlikni ifodalovchi frazeologik birliklari haqida ma’lumot berilgan.

**Kalit so‘zlar:** lingvofalsafaviy, lingvopoetik, emotsionallik, ekspressivlik, frazeologik turg‘un birliklar, semantik modellar, leksema.

**Аннотация.** В данной диссертации представлены сведения о взглядах ученых на особенности эмоциональной выразительности, лингвопоэтические средства эмоциональной выразительности, эмоциональную чувствительность, экспрессивность, методичность, особенности оценки и отношения, объект изучения чувств, а также фразеологизмы, выражающие эмоциональную выразительность.

**Ключевые слова:** лингвофилософский, лингвопоэтический, эмоциональность, экспрессивность, фразеологические устойчивые единицы, семантические модели, лексемы.

**Annotation.** This thesis provides information on the views of scientists on the characteristics of emotional expressiveness, linguopoetic tools of emotional expressiveness, emotional feeling, expressiveness, methodicality, characteristics of evaluative attitude, the object of studying feelings, and phraseological units expressing emotional expressiveness.

**Key words:** linguophilosophical, linguopoetic, emotionality, expressiveness, phraseological stable units, semantic models, lexeme.

Tilshunoslikda emotsional birliklarning ekspressiv xususiyatlari yetarlicha o'rganilgan emas. Emotsiyalarning asosini insonni o'rab turgan borliqqa obektiv munosabat turli kechinmalarda ifodalanadi. Inson atrofidagi olamni turlicha talqin qiladi va uni his tuyg'ulari orqali seza boshlaydi. Shuni aytish lozimki inson hech qachon his-tuyg'ularsiz haqiqatga erishmagan va erisha olmaydi. Inson his tuyg'ularini o'rganish obekti psixologiya va falsafa bo'sa hissiyotlarni yetkazib berish vositasi esa til hisoblanadi. Til birliklarining emotsionalligi masalalari tilshunoslikdagi eng dolzarb va munozarali sohadir. Buyuk olim E.M.Galkina-Fedoruk emotsionallikni ekspressivlikka qaraganda torroq tushuncha deb ta'riflagan. Emotsionallikni inson atrofidagi borliqqa munosabati hamda tinglovchiga hissiy tasiri deb tushunish mumkin. Tuyg'ular psixologik hodisa, ya'ni insonning olamdagi voqea hodisalarga o'z munosabatidir. Shuning uchun emotsionallik va ekspressivlik tushunchalari bir birini taqazo etadigan tushunchalardir [Yo'ldoshev, Rashidova, 2016; 190].

Bu munosabat nutqda quvonch, baxt, qayg'u g'azab kabi shakllarida namoyon bo'ladi. Tilshunos V.G.Gak tilning hissiy va ekspressiv imkoniyatlarini nazariy jihatdan ishlab chiqib, shunday fikrga keladi: "Inson nutqining hissiy tabiati har qanday nutq ma'nosida aks etadi" degan xulosaga keladi [Gak, 1989; 46].

O'zbek tilshunosligida emotsional ekspressiv so'zlar muayyan darajada o'rganilgan va uning leksik qatlami tasniflangan, ulardan ma'lum bir darajada foydalanish usullari ham alohida keltirib o'tilgan. Lekin hali hamon emotsional ekspressivlik tushunchalariga bag'ishlangan ilmiy ishlar yetarli darajada emas. Emotsional-ekspressivlik lingvopoetik vosita sifatida tavsiflanib, tilda emotsionallik bilan ekspressivlik teng tushunchalar ekanligi olimlar tomonidan e'tirof etilgan, shuning uchun ham tilshunoslikda emotsional-ekspressivlik atamasi foydalanila boshlangan [O'TIL, 1986; 342]. Yozuvchilar badiiy asarlarida emotsional-ekspressivlikdan o'z asarlarining g'oyaviy, badiiy hamda semantik yo'nalishini belgilash, mazmun va mohiyati uslubiy rang barangligini ko'rsatish uchun foydalanadi.

O'zbek tilida emotsional hissiylik, ekspressivlik, uslubiylk, baho munosabat xususiyatlari ko'plab frazeologik birliklariga xosdir. Masalan:

Asarlarda yozuvchi tomonidan ijobiy emotsional-ekspressivlikni o'zida mujassam etuvchi, inson ma'lum bir shaxs, narsa va hodisa ta'sirida quvonch, zavq-u shavqqa erishgan paytda shunchaki *quvondi, sevindi, zavqqa to'ldi, xursand bo'ldi* kabi birliklardan emas balki *boshi osmonga yetti, sevinchi ichiga sig'madi, og'zi qulog'iga yetti, terisiga sig'may ketti, ko'ngli tog'dek ko'tarildi, qo'yi mingga yetti, do'ppisini osmonga otdi, tishini oqini ko'rsatmoq, dimog'ichog' bo'lmoq, yuragi qinidan chiqayozmoq, boshi ko'kka yetmoq* kabi frazeologik birliklardan kontekstual foydalanilsa bu hissiy rang barangligini ochib berishga shu bilan birga o'quvchida o'zgacha bir taasurot qoldirishiga xizmat qiladi. Frazeologik birlik insonning emotsional-ekspressiv hissiyotlarini ifoda etishda muayyan darajada emotsionallikka, ular ekspressiv ma'no tufayli butun boshli gapning ma'nosini oshirishga hissasini qo'shadi.

Ijobiy emotsional birliklar xususan *quvonch* manosini ifodalovchi bir necha frazeologik birliklar mavjud bo'lib, ular kognitiv belgilariga ko'ra o'ziga xos semantik modellarga ega. Insondagi quvonch hissini ifodalash uchun ma'lum bir tana a'zolarining holatini obrazli tarzda ko'rsatish uchun quyidagi turg'un birikmalar mavjud: *boshi osmonga yetmoq, boshi ko'kka yetmoq, ko'ngli ko'tarilmoq, terisiga sig'may ketmoq, og'zi qulog'iga yetmoq, og'zining tanobi qochmoq* - behad sevinmoq, quvonmoq ma'nolarini ifodalaydi va insonning nihoyatda xursandligini, quvonchini obrazli tarzda o'quvchiga yetkazib beradi.

Masalan: Imtihondan o'tib pattani qo'liga olgandan *og'zi qulog'iga yetib*, o'zini qo'yarga joy topolmadi. (Tohir Malik)

Anvarni bu oiladan sug'urib olish kerak! Bu to'g'rida qo'limdan kelganini ayamayman! Agar Muhayyo Anvarga ko'ngil qo'ysa *boshimni osmonga yetkazgan bo'ladi* [Abdulla Qahhor, 2012; 24].

Yolg'iz qolgach, qo'ltig'imdagi qalpoqchamni chiqarib kiyayotgan edim:

- Nega qaltiraysan? - deb so'radi qalpoqcham.
- Rostini atrsam, qo'rqayapman.

- Qo'rqma. Qo'rqoqlar hech qachon murodiga yetolmaydi. Shu gap esingdan chiqmasin, - *ko'nglimni ko'tardi qalpoqcham* [To'xtaboyev, 2010; 114].

Ana Go'ro'g'libek qomin to'qlab, *dimog'ini choqlab*, Temirxonga qarab, bir so'z aytaverdi:

So'zima quloq sol, kelgin Temirxon,

Qon bo'p qoldi, urush qilib

Hindiston Otaliqqa Go'ro'g'libek keldi de.

Yaxshi gapni olib borgin Temirxon [XOI, 2023; 252]!

Shu bilan birga insonning quvonchli va hayajonli vaziyatini inson ichki organlari holati orqali ifodalash mumkin. Ijobiy emotsiyani ifodalovchi *yuragi hapqirib ketmoq* - cheksiz hayajondan inson yuragi jumbushga kelishi; *yuragi yorilib ketmoq* - quvonchdan to'lib toshmoq, yuragidan iliq to'lqin tarala boshlamoq - quvonmoq kabi yurak so'zi qatnashgan frazeologik birliklar mavjud. Masalan: Onamning nechog'lik hayajonlanganini bir ko'rsangiz edi! Boyaqish o'zini qo'yarga joy topolmay qoldi, *yuragi hapqirib ketdi*.

Qamoqqa olingan payt 34 yashar edi. Bu yil roppa-rosa ellik beshga to'ldi. Biz yigirma bir yil diydorlashmadik. Yigirma bir yil-a! Aytishga oson. Hammasiga chidadik. Mayli, ishqilib, otang sog'-salomat bo'lsa bas. Eshitishimcha, Sibirga surgun qilingan kishilarning ko'pchiligi o'sha yerda uylanib olishgan emish... Ehtimol, u ham shunday qilgandir. Axir, bir iloj qilib yashash ham kerak-da! Faqat salomat bo'lsa bas. Xudoyim-ey, a'zoyi badanim qaltirab ketyapti. Ishqilib, uchrashuv payti *yuragim quvonchdan yorilib ketmasa* koshkiydi [Aytmatov, Shoxonov, 1998; 11]...

Ko'pincha har xil xayollar girdobida o'zim bilan o'zim yolg'iz qolaman. O'shanday g'amgin damlar qulog'imga Shostakovich asarlaridan birining tovushi chalinsa — bas, darhol *yuragimdan iliq to'lqin tarala boshlaydi* [Aytmatov, Shoxonov, 1998; 52].

Mana shu oddiygina taxminiy haqiqatdan *yuragim hapqirib ketdi* va ko'p o'ylab turmasdan shahar tomon jo'nadim [Aytmatov, Shoxonov, 1998; 11].

*Ichagi uzulgudek bo'lib* - ko'pincha inson kulguli voqea hodisani eshitgandagi kulish holatini ko'rsatish uchun ushbu iboradan foydalaniladi. Masalan: Dasturxon atrofida qizg'in suhbat bo'ldi. Har xil mavzularda fikr almashdik. Lekin, Jambuldagi zoovettexnikumda o'qib yurgan paytlaringizda ro'y bergan "eshakchilik" to'g'risidagi hikoyangizni eshitib, hamma *ichagi uzilguncha kuldi* [Aytmatov, Shoxonov, 1998; 18].

Quvonchli vaziyatni ochib berish uchun etnofrazemalar ham mavjud. Ular *do'ppisini osmonga otmoq, qo'yi mingga yetmoq* kabilardir.

Xulosa qilib shuni qayd etish mumkinki o'zbek tilida inson zavq, quvonch, mamnunlik xusanchilik holatlarini o'zida aks ettiruvchi frazeologik birliklar muhim ahamiyatga ega. Keltirilgan ijobiy emotsiyalarni asarlarda rang barang tarzda, asar personajlarini nutqini jarangdorroq qilish maqsadida yozuvchilar leksemalardan ko'ra frazeologik birliklardan keng foydalanishni afzal ko'radi. Kuzatishlardan ko'rinib turibdiki insonning hissiy holatini ifodalaydigan frazeologik turg'un birliklar emotsional-ekspressivligi jihatidan kerakli leksik ekvivalentlar bilan o'zaro taqqoslanadi hamda ma'noni kuchli va obrazli qilib tasvirlashga hissa qo'shadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Abdulla Qahhor Anor qissa va hikoyalar G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiyuyi Toshkent –2012.- 200 b.
2. Xalq og'zaki ijodi. «Gulnor pari» doston «Go'ro'g'li» dostonlari turkumidan T.: "Oltin qalam", 2023. - 320 b.
3. Xudoyberdi To'xtaboyev Sariq devni minib roman Toshkent Yangi asr avlodi - 2010. - 236 b.
4. Yo'ldoshev B.,Rashidova U. O'zbek Frazeologiyasi (bibliografik ko'rsatkich) - T., 2016. - 190 b.
5. O'zbek tili leksikologiyasi. - T.: Fan, 1986. - 342 b.
6. Chingiz Aytmatov Muxtor Shoxonov Cho'qqida qolgan ovchining ohi-zori (Asr adog'ida aytilgan istig'for) «Sharq» nashriyot-matbaa konserni bosh tahririyati Toshkent — 1998. - 225 b.